

KUTUBXONACHI KUTUBXONA-AXBOROT JARAYONINING YETAKCHI ISHTIROKCHISI

Murotova Yulduz Faxriddin qizi

O‘zbekiston davlat san’at va madaniyat instituti

Kutubxona-axborot faoliyati fakulteti 3- kurs talabasi

***Annotatsiya.** Mazkur maqolada axborot-kutubxona faoliyatining jamiyatdagi qonun va me’yorlar asosida shakllantirilishi lozim bo‘lgan me’yorlari, axborot-resurs markazlaridan foydalanuvchilarning o‘zgarib boruvchi mavjud ehtiyojlariga mos tushuvchi xizmat samaradorligini oshirish va takomillashtirish hamda bu jarayonlarda kutubxonachi shaxsining o‘rni, ahamiyati borasida fikr yuritilgan.*

***Kalit so‘zlar:** boshqaruv subyeksi, boshqaruv obyeksi, kutubxonachilik jarayoni, qayta aloqalarni tiklash, axborotlar almashinuvi, tashkillashtiriladigan tamoyillar, ku- tubxonachilik tizimi.*

KIRISH

Bugungi kunda butun dunyoda ta’lim tizimi va u bilan bog‘liq bo‘lgan postindustrial jamiyat munosabatlari to‘g‘risida ko‘plab fikr-mulohazalar bildirilmoqda. Agar insoniyat mashhur Fermi paradoksi, ya’ni texnik sivilizasiyaning o‘z-o‘zini bartaraf etish tamoyillari bo‘yicha rivojlanish ssenariysidan saqlana olsa, unda industrializmdan postindustrializmga, «axborotlar jamiyatiga» o‘tish jarayoni yuz beradi [1].

TADQIQOT METODOLOGIYASI VA EMPIRIK TAHLIL

Jumladan, O‘zbekiston sharoitida axborot-kutubxona faoliyatining barcha mezonlari, birinchi navbatda, jamiyatdagi qonun va me’yorlar asosida shakllanishi lozim bo‘lgan ijtimoiy institut sifatida namoyon bo‘la boshladi. Shuning uchun ham davlatning bosh strategik yo‘nalishlaridan sanalgan ta’limning madaniy-ma’rifiy

sohasiga jiddiy yondashish muhim ahamiyat kasb etadi. Tabiiyki, bu holat nafaqat shakl, balki mazmun jihatdan ham muammoga yangicha yondashuvni hamda uning zamonaviy boshqaruv tizimini takomillashtirishni talab etardi.

Axborot kutubxona faoliyatini boshqarish deganda, tashqi muhit shart-sharoitlaridan kelib chiqib, kutubxonalardan foydalanuvchilarning o'zgarib boruvchi mavjud ehtiyojlariga mos tushuvchi xizmat samaradorligini oshirish va takomillashtirish faoliyati tushuniladi. Axborot-kutubxona faoliyati tizimi va uning mexanizmini boshqarishda ikkita omil muhim ahamiyat kasb etadi, bular [2]:

- a) boshqaruv obyekt;
- b) boshqaruv subyekti.

Boshqaruv obyektini asosini kutubxona va uning joylardagi bo'linmalari tuzilmasi tashkil qilib, u kutubxona xodimlari, kutubxona-bibliografiya va iqtisodiy manbalarni qamrab oladi. O'z navbatida, boshqaruv subyekti mavjud qonunchilik doirasida jamoaviy boshqaruv organi yoki qaysidir soha va tarmoqlarga mas'ul qilib belgilangan turli maqom (mavqe)dagi boshqaruv shaxslari jamlanmasidan iborat bo'ladi. Obyekt va subyekti o'rtasidagi o'zaro aloqadorlik maqsad, tuzilma (struktura), xodimlar, vazifalar va ish uslubidan iborat boshqaruv tizimiga asoslanadi.

Tabiiyki, axborot-kutubxona muassasalaridan foydalanishda vorisiylik amaliyotiga asoslangan boshqaruv jarayoniga amal qilish hamma davrlarda ham ongli amalga oshirilib kelingan. Kutubxonashunoslikda ularning [3]:

- a) *ilmiylik;*
- b) *tizimli;*
- c) *boshqaruv subyekti faoliyatining boshqaruv obyektini asoslariga mos tushuvchi imkoniyatlari;*
- d) *qayta aloqalarni tiklash;*
- e) *ratsional darajadagi markazlashgan va markazlashmagan o'zaro muvofiqlik;*
- f) *tashkillashtiriladigan tamoyillardan iborat shakllari mavjud.*

XULOSA VA MUNOZARA

Umuman olganda, axborot-kutubxona faoliyati boshqaruv tizimining tuzilmasi an'anaviy holatda quyidagicha tashkil etilgan:

-Rahbariyat – ma'muriy xodimlar (direktor, uning o'rinbosarlari, bo'lim mudirlari).

-Mutaxassislar – kutubxona maxsus bo'linmalarining bosh mutaxassislari (uslubiyot ishchilari).

-Boshqaruv tizimidagi qo'shimcha xodimlar (kompyuter operatorlari, texnik koti-balar va boshqalar).

Aytish joizki, bugungi kun nuqtai nazaridan, ushbu tuzilma shartli mazmun kasb etadi. Negaki, yuqori sur'atdagi texnik taraqqiyot ko'p holatlarda chet tillarni o'zlashtirishda layoqatli va kompyuter dasturlarida unumli ishlay oladigan mutaxassislar hisobiga mavjud boshqaruv tizimiga sezilarli ta'sir o'tkazmoqda. Intellektual bilimlarga ega, kreativ fikrlaydigan, zamon bilan hamnafas kutubxonachilar ushbu yo'nalish rivojlanishida muhim ahamiyat kasb etishi shubhasiz.

ADABIYOTLAR RO'YXATI

1. Yuldasheva S. Kitob mutolaasini shakillantirishda kutubxonachilik faoliyati //Oriental Art and Culture. – 2019. – №. IV (1).
2. Karimova H.Q. Yoshlarning siyosiy madaniyatini oshirish jarayonida axborot-kutubxona muassasalari holati: muammo va yechimlar. // «Axborot-kutubxona resurslaridan fan, ta'lim, madaniyat va biznes sohalarida foydalanish» mavzusida o'tkazilgan konferensiya materiallari. – T., 2010. –22-b.
3. Spravochnik bibliotekarya. – Sankt-Peterburg, "Professiya", 2010. –b. 187.
4. Yastrebova Ye.M. Strategicheskiy menedjment i strategicheskoe planirovanie dlya bibliotek: istoricheskiy ekskurs, seli i sumnost. Leksiya. – M.: MGUK, 2018. –b. 47